

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI” mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

O‘ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH MUAMMOLARI (TURKIYA TAJRIBASI)

Zilola Xudaybergenova,
Filologiya fanlari doktori, professor
Bartin universiteti, Turkiya
E-mail: zkhudaybergenova@bartin.edu.tr

Annotatsiya: O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi natijasida dunyoning turli mamlakatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar o‘rnatildi. O‘zbekistonda g‘arb va sharq tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishi barobarida chet davlatlarda ham o‘zbek tilini egallash, o‘zbek adabiyoti durdonalarini tarjima qilib tanitishga qaratilgan faoliyat ham boshlandi. O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, usullari va muammolari kabi masalalar til o‘qitish sohasi uchun alohida tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqdi. Har bir chet davlatda millatning milliy mentaliteti, milliy dunyoqarashi, o‘zbek tilini o‘qitishning moddiy-texnik ta’minoti bilan bog‘liq holda hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolarning yuzaga kelishi tabiiy hol. Mazkur maqolada Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitish tajribasi asosida aniqlangan muammolar va ularning yechimi haqidagi fikr-mulohazalar jamlangan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, Turkiya, o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish, o‘zbek tili ta’limi, o‘zbek tili ta’limi mazmuni.

Abstract: As a result of the independence of Uzbekistan, political, economic and cultural relations were established with various countries of the world. Along with the growing interest in learning western and eastern languages in Uzbekistan, activities aimed at acquiring the Uzbek language and introducing the masterpieces of Uzbek literature in foreign countries have also started. Specific features, methods and problems of teaching the Uzbek language as a foreign language have emerged as a separate research object for the field of language teaching. In every foreign country, it is natural that there are problems that need to be solved in connection with the national mentality of the nation, the national worldview, and the material and technical support of teaching the Uzbek language. This article summarizes the problems identified based on the experience of teaching the Uzbek language in Turkey and opinions about their solutions.

Key words: Uzbek language, Turkey, teaching Uzbek as a foreign language, Uzbek language education, content of Uzbek language education.

Bugungi integratsiya va globallashuv davrida turli o‘lkalar va millatlar orasida insonlararo muloqot uchun bo‘lgan ehtiyojlar borgan sari ortib bormoqda. Zero, chet tilini bilish farqli millatlar vakillari orasida muloqot o‘rnatishning eng muhim shartlaridan biri bo‘lganligi sababli zamonaviy bilim dunyosida insonlarning til o‘rganishga bo‘lgan istagi va qiziqishi sur’at bilan kuchaymoqda. Xususan, so‘nggi paytlarda boshqa xorijiy tillar qatorida o‘zbek tili o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning ham nihoyatda ortganligini e’tirof etmoq darkor. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarida 2016 yildan keyingi yangi davrining boshlanishi, albatta, bu vaziyatning o‘rtaga chiqishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda Turkiyada oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili qanday o‘rgatilmoqda? Gapning ochig‘i, yangi vaziyatlar shart-sharoitida xorijiy tilni, bu

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI” mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

holatda esa, o‘zbek tilini o‘rganish uchun yangi bir yondashuvga zarurat borligi ma’lum bo‘ladi. Chunki dunyo shiddat bilan o‘zgarmoqda, globallashuv jaryoni, ya’ni ekonomik, siyosiy va madaniy integratsiya jamiyatning barcha jabhalarini bosqichma-bosqich qamrab olmoqda. Turli mamlakatlarning tillari va madaniyatlarini orasida bir-biriga aralashuv va birlashuv jarayonlari ro‘yobga chiqmoqda. Bu vaziyatda xorijiy til o‘qituvchilari til, madaniyat va xorijiy til dunyo manzarasini o‘rgatish masalasini hal qilish bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Ayni zamonda, farqli madaniyatlar vakillarining o‘zaro samarali muloqotining asosiy shartlari qatorida ikki tarafning o‘zaro anglashishi, o‘zaro hurmat hamda madaniyatlarga nisbatan tolerant bo‘lishi bu qoidalar sirasiga kiradi. Zero, o‘zbek va turk tillari bir til oilasiga mansub bo‘lishiga qaramay, Ye.M.Vereshchaginning fikriga ko‘ra: “ikki milliy madaniyat hech bir zamon to‘lalagicha bir-biriga mutanosib bo‘lmaydi, bu holat har bir madaniyatning milliy va millatlararo unsurlardan o‘rtaga chiqadi” [2]. Shu bilan birga, jamiyatning bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichida millatlararo munosabatlar yangi shakllarda amalga oshirilayotganini e’tirof etish lozim. Xususan, e-posta, Skype, Telegram, What’sApp, Zoom kabi dasturlar orqali ovozli, ko‘rinishli aloqa va matnlarning almashinushi, sosial xizmatlar, Facebook, Twitter va boshqa o‘z bloglari, sahifalarini yaratish platformalari va yana bir qator turli elektronik aloqa vositalari keng qo‘llanilib bormoqda. Elektronik vositalarning takomillashuvi “aloqaning tabiatini tubdan o‘zgartirgan, kompyuter vositalari orqali amalga oshiriladigan muloqot shakli”ning rivojlanishiga, “global dunyo” tushunchasining yanada ko‘proq qo‘llanilishiga yo‘l ochdi [4, 15]. Bunday bir davrda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning mazmun-mohiyati, vositalariga bo‘lgan talablar ham o‘zgarishi tayin.

O‘zbek tili ta’limining mazmuni uch qismidan tashkil topadi.

Bular:

1.Maqsad: o‘zbek tilini muloqot sifatida o‘rgatishning unsurlari. Bularga lingvistik, so‘zlashuv, sosio-madaniy, kognitiv ko‘nikma va malakalarni kiritishimiz mumkin.

2.Faoliyat: matnni o‘qish, tinglash, yozish va muloqot qilish ko‘nikmalarini qamrab oladi.

3. Ta’lim muhitining xususiyatlari - ta’lim manbalari, moddiy-texnik ta’minot, internet, ijtimoiy sahifalar, elektron pochta va boshqa axborot texnologiya vositalari kabilarni o‘z ichiga oladi.

Xorijiy tilda muloqot qilish malakasini va bu malakaning unsurlari – lingvistik, so‘zlashuv, sosiomadaniy va kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish, nafaqat o‘zbek

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

tilini, balki har qanday xorijiy til o‘rganishning maqsadidir. Bu maqsadga erishish uchun til birliklarini o‘rganish, so‘zlashuv, tinglash, o‘qish, yozish ko‘nikmalarini, mintaqaviy, jo‘g‘rofiy va asosiy madaniy ma’lumotlarni o‘zlashtirish, asosiy muloqot va shaxsiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uchun kerakli bo‘lgan ma’lumot va ta’lim muhitining yaratilishini taqozo etadi.

Matnning o‘zbek tilini o‘qitilishining bosh birligi sifatida diqqat markazida tutilishi, internetning qo‘llanilishi, ijtimoiy sahifalar va boshqa axborot texnologiyasi vositalari, programmalarining samarali tatbig‘i talablarning xorijiy tilni o‘rganishga motivatsiyasini, ya’ni rag‘batini orttirishga ko‘mak beradi. Masalan, dunyodagi eng so‘nggi voqealar haqidagi xabarlar (sport, madaniyat, siyosat va boshqa sohalarda), til egalarining nutqi (mashhur kishilarining nutqlari, seminarlar, qiziqarli televizion dasturlari, kinolar, video –kliplar va boshqalar) darsning mazmunini boyitadi, bu esa boshqa til, ayni vaziyatda o‘zbek tilini va o‘zbek madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning yanada kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Internetning boy manbalarini mahorat bilan qo‘llash o‘zbek tilini o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va turk tillarini bu tillar madaniyatlarini qiyoslab o‘rgatish ham yuqori samara beradi. Bundan tashqari, internet vositasida O‘zbekiston tarixi, madaniyatiga virtual siyohat qilish, o‘zbek an’analari va urf-odatlarini tanishtirish turk talabalarining o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishining ortishiga sabab bo‘ladi. Zero, S.G.Ter-Minasovaning ta’kidlashiga qaraganda, chet tili darsi madaniyatlar chorrahasi, chet tilini taqdim etish hodisasi, madaniyatlararo muloqot amaliyotidir, chet har bir xorijiy tildagi so‘z begona dunyonи va begona bir madaniyatni aks ettiradi [6; 7]. Bugungi kunda tilni qanday o‘rgatish va qaysi usullar bilan o‘qitish kerak, degan savolga javob axtarar ekanmiz, zamonaviy axborot texnologiyalarini ham e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur (Skype, ZOOM, video-konferensiyalar, virtual suhbatlar, forumlar, elektron kutubxonalar, virtual dunyolar va boshqalar).

Turkiyada o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonida yuzaga kelgan barcha muammolarni ikki kategoriyaga bo‘lish mumkin:

1. Psixologik muammolar.
2. Moddiy-texnik ta’midot bilan bog‘liq muammolar.

1. *Psixologik muammolar.* O‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha turk talabalarida ilk ko‘zga tashlanadigan muammo ularning ruhiy holatiga bog‘liq ravishda o‘rtaga chiqadi. Bu muammo quyidagi holatlarni o‘z ichiga oladi:

A) o‘ziga bo‘lgan ishonchning yetarsizligi. Turk talabalarining ko‘pchiligi o‘zbek tilini o‘rganish uchun o‘zlarida qobiliyatning yetarsiz ekanligini e’tirof

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

etishadi. Yoki o‘zbek tilini o‘rganish uchun ayrim o‘zbek xarflarini, so‘zlarini noto‘g‘ri qo‘llash natijasida yuzaga kelgan tortinish hissi ularni o‘zlarini-o‘zlar cheklashlariga olib keladi. Lekin tajriba bu holatlarning aslida yanglish ekaligini ko‘rsatadi. Ya’ni davomli darsda o‘zbek tilini o‘rganish uchun shug‘ullanish, birdaniga bo‘lma-da, bosqichma-bosqich ruhiy muammolarni hal qilishga imkon yaratadi;

B) o‘zbek tilida gapishtiga xalaqit beradigan ruhiy muammolar. Bu o‘rinda turk talabalarining o‘zbek tilini bilmasligini yoki yaxshi egallamaganligini ko‘rsatishdan qo‘rqish, yanglish gapishtiga kabi tuyg‘ularini qayd etish lozim. Ya’ni o‘zbekcha so‘zlarni aksent bilan talaffuz qilish, o‘zbekcha kelishik va zamon, mayl shakllarini noto‘g‘ri qo‘llashdan cho‘chish, boshqa talabalarining kulgisiga sabab bo‘lishni istamaslik turk talabalarini o‘zbekcha gapishtiga to‘sinqilik qiladi.

V) o‘zbek tilida fikrlamaslik yoki o‘zbekcha o‘ylashdan qochish. Ma’lumki, xorijiy tilni o‘rganayotgan har bir odam yoki talaba avval o‘z ona tilida jumla quradi, undan kesin so‘zlarni xorij tilga o‘giradi. Bu jarayon davomida grammaтика qoidalarini qiyoslaydilar, ya’ni masalan, turk tilidagi o‘tgan zamon, hozirgi zamon yoki kelasi zamon uchun o‘zbek tilida qaysi zamonlar qo‘llanilishini solishtirib eslaydilar. Undan keyingina jumla quradilar. Bu jarayon so‘z qo‘llanishida, jumla qurilishida juda ko‘p grammaтика va statistik xatolarga yo‘l qo‘yiladigan uzun va charchatuvchi jarayondir. Shu sababli xorij tilni o‘rganishda ushbu tilda fikrlashni, o‘ylashni o‘rganmasdan turib muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. O‘zbek tilida to‘g‘ri gapishtiga uchun o‘zbek tilida xayolida illyustrativ fikrlash, xayolida rasmlar chiza olish kerak. Bu jarayon ham turk talabalarining o‘zbek tili darslarida o‘z fikrlarini bayon etishlariga to‘sinqilik qiladi.

2. *Moddiy-texnik ta’minot bilan bog‘liq muammolar.* Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitishda yuzaga chiqadigan asosiy muammolardan biri darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining, o‘zbekcha-turkcha, turkcha-o‘zbekcha lug‘atlarning yetarsizligi, mavjud darsliklar, qo‘llanmalar va lug‘atlarning ham talab darajasida emasligi, o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha elektron manbalarning yaratilmaganligida kuzatiladi.

O‘zbek tilini o‘qitishda asosan turk tilshunoslari tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Albatta, O‘zbekistonda xorijliklar uchun, xususan, M.Abdurahmonova va G.Rixsiyeva tomonidan turk talabalari uchun nashr etilgan “O‘zbek tili” darsligi mavjud[5]. Biroq Turkiyada O‘zbekistonda nashr bo‘lgan kitoblarni xarid qilish imkoniyati yo‘q. Shu sababli, o‘zbek tilini o‘qitishda turk mualliflar tomonidan tayyorlangan darsliklardan foydalanmiz. Masalan, Xuseyn Yildirim muallifligidagi “O‘zbek tili” darsligi bugungi kunda o‘zbek tilini o‘qitishda

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI” mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

qo‘llanilayotgan asosiy manbadir[1]. O‘zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va qisqa tarzda sintaksisidan ma’lumot beruvchi, mashqlar va tarjima uchun matnlardan iborat bo‘lgan bu kitob hozirda turk talabalarining asosiy darsligidir. Bir tarafdan, har bir talaba sotib olishi mumkin bo‘lgan bu darslik eng kamida o‘zbek tilini o‘rganish uchun butun guruhni ishlatalish va uyga vazifa berish uchun qulaylikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, bir qator kamchiliklarga ega. Xususan, o‘zbek tili grammatikasi turk tili grammatiskasi nuqtai nazaridan anglatilgan. Masalan, turk tilida mavjud bo‘lgan esitlik hal eki - tenglik kelishigi o‘zbek tilida ham ajratilgan. Natijada turk tilidagi –ce qo‘srimchasi bilan yasalgan bence - menimcha, tarafinca – tarafidan kabi so‘zlarga o‘xshash bo‘lgan –cha qo‘srimchasi (menimcha, seningcha) ham o‘zbek tilidagi kelishik qo‘srimchasi sifatida ko‘rsatilgan. Yoki, o‘zbek tilida olmoshlarning 7 ma’no turi mavjudligi barchamiz bilamiz. Qayd etilgan kitobda bu olmoshlarning 5 turi tilgan olingan va bo‘lishsizlik, belgilash-jamlash, gumon olmoshlari bir termin – noaniqlik olmoshlari sifatida o‘rgatiladi. Bundan tashqari, turk tili grammatikasi an’analariga muvofiq tarzda son so‘z turkumi sifatning ma’no turlaridan biri sifatida o‘qitiladi. Natijada o‘zbek tilida beshta mustaqil so‘z turkumi bor deb o‘rgatiladi. Ushbu holat ham, so‘zsiz, o‘zbek tilining grammatikasini o‘qitishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash zarur: dunyo miqyosida o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Kundan-kunda takomillashib borayotgan jahondagi globallashuv va integratsiya jarayoni o‘zbek tilini o‘qitish uchun ham yangi standartlar, ya’ni usullarning joriy etilishini taqozo etmoqda. Bu esa, o‘zbek tilini madaniyatlararo muloqotning muhim unsuri sifatida o‘qitish-o‘rgatishning yangi maqsadlari, yangicha usullarini qo‘llashni, ayniqsa axborot texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlarining ham o‘zbek tilini o‘qitishga joriy qilinishini taqozo etadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish avvalo bu boradagi muammolarni aniqlash, o‘rganish va ularni hal qilish yo‘llarini ishlab chiqishni talab etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Yıldırım Hüseyin. *Özbek Türkçesi*. Ankara: TDK, 2012.
2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. *Язык и культура*, Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Москва, Русский язык, 1990.
3. Ветчинова, М.Н., *Изучение иностранных языков в эпоху глобализации и диалога культур* [Электронный ресурс], Теория языка и межкультурной

**“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK
TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”
mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

коммуникации: электрон. науч. Журнал, URL: <http://tl-ic.kursksu.ru/> (дата обращения: 29.08.2016).

4. Леонович О.А. *Введение в межкультурную коммуникацию*. Москва, Гнозис, 2007.
5. Рихсиева Г., Абдураҳмонова М. *Ўзбек тили*. Т., 2018.
6. Тер-Минасова С.Г. *Язык и межкультурная коммуникация*. Москва, СЛОВО/SLOVO, 2000.
7. Тер-Минасова, С.Г., *Национальные литературы в диалоге культур в эпоху глобализации. Аспекты национальной идентичности* [Электронный ресурс], URL:<http://regionalstudies.ru/journal/homejurnal/rubric/2012-11-02-22-15-01/163--l-r-.pdf> (дата обращения: 25.08.2016).